UO‘K 811.111’42

PERSONAJ SUKUTI BADIIY UNSUR SIFATIDA

M.M. Saidxonov

Maqolada badiiy asarda personajlar individualligini ta’minlashda, badiiy obrazning xarakter-xususiyatini ifoda etishda, uning ichki hissiyotini, ruhiyatini bildirishda sukut va uning o‘rni xususida tahliliy materiallar berilgan. Badiiy matn tahlili yordamida badiiy asardagi kommunikantlarning muloqotida sukutdan foydalanish yozuvchining personaj dunyosini ifodalashda asosiy unsurlardan ekani misollar asosida isbotlangan.

Kalit so‘zlar*: verbal va noverbal, aloqa-aralashuv, kommunikativ akt, sukut, personaj, muloqot, sukut dialogi, noverbal kod.*

В статье даны аналитические материалы относительно молчания и его места в обеспечении индивидуализации персонажей в художественном произведении, выражении характера-особенностей художественного образа, раскрытии психологии. На основе примеров посредством анализа художественного текста доказано, что использование молчания в общении коммуникантов в художественном произведении является основным элементом в выражении писателем мира персонажа.

Ключевые слова: *вербальный и невербальный, коммуникация, коммуникативный акт, умолчание, персонаж, общение, диалог молчания, невербальный код.*

Kirish

Badiiy matn tahlili shuni ko‘rsatadiki, muayyan vaziyatda sukut mos ravishda lisoniy birliklar bilan voqelanadi, unda ham sukutning ma’nosi kontekst va situatsiyadan aniqlanadi, sukut asar personajining xarakterini ochib berish vositasi sanaladi.

Sukut so‘zga nisbatan ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega bo‘lib, antropotsentrik nuqtayi nazar ushbu holatda qo‘l keladi. Zero, sukut umumiy xususiyatlar (vaziyat, holat, sharoit) dan tashqari kommunikativ shaxs va uning adresatiga ham bog‘liq sanaladi. Bu o‘rinda kommunikantlar (personajlar) o‘rtasidagi munosabatlar, ularning o‘zaro ijtimoiy, kasbiy, irqiy, diniy, milliy, genderologik, yosh, qarindoshlik, tanish-tanish emaslik va boshqa munosabatlari ahamiyatli sanaladi. Shu bilan birga, muloqot paytidagi ruhiy, hissiy holatlar ham e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu jihatdan “sukut sehri” “nutq sehri”ga qaraganda murakkabroq, lekin aniq bo‘ladi.

L.Vitgenshteyn ta’biricha, “nima haqida gapirish kerak bo‘lmasa, sukut afzal” [1]. Demak, sukut, garchi nutqiy kommunikatsiya sanalmasa-da, muayyan ma’no (fikr) ifodalash vositasidir. Gapirish kerak bo‘lmagan nimadir haqida axborot beradi. O‘sha gapirish kerak bo‘lmagan axborot sukut orqali interpretatsiya qilinadi. Sukut fikrning so‘z darajasiga ko‘tarilmagan shakli bo‘lib, kommunikativ aktda kommunikantlarning shaxsiyatini aniqlashda ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar

Badiiy matnda personajlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida har bir obrazning sukut qilishi tabiiy vaziyatni ifodalash bilan birga, asar ishtirokchilarining xarakterini, xususiyatlarini, portretini, ruhiy va hissiy holatlarini ifodalashda ahamiyatli sanaladiki, bular barchasi kommunikativ akt doirasida tadqiq etiladi. Shunga ko‘ra ushbu maqolada asar personajlarining kommunikativ akti jonli muloqot va matniy jihatdan tahlilga tortilgan. Bu esa ekstralingvistikaning lingvistika bilan muvofiqlashganidan darak beradi. Maqolada verballashgan sukutning real muloqot

jarayonidagi tahlili badiiy matndagi personajlar xarakterini ochib berishdagi alohida usul sifatida ko‘rib chiqilgan.

Natijalar va ularning tahlili

Sukut personajlar tafakkurining mahsuli hisoblanib, uning voqelanishi muayyan maqsad yo‘lidagi urinishning natijasi sifatida e’tiborga olinadi. Nutqiy holatda ham, sukut holatida ham shaxsning o‘y-fikri ro‘yobga chiqadi: biri verbal yo‘l bilan, ikkinchisi noverbal (sukut) vosita orqali. Yana shuni qo‘shimcha qilish kerakki, sukut orqali uzatilgan axborot tabiiy bo‘lib, so‘z orqali moddiylashuvda tabiiylikdan yiroqlashgan bo‘ladi. Bejizga muloqotda noverbal vositalar verbal vositalarga nisbatan aniqlikni, tabiiylikni, ta’sirchanlikni ifodalashi aytib o‘tilmagan. Sukut holdagi informatsiya shaxsning (personajning) juda ko‘p xususiyatlarini ochib beradi.

Biz nutqda fikrimizning juda kichik qisminigina ifoda etish imkoniga egamiz, tafakkurimizda etilgan ma’lumotlarning ko‘p qismi yashirin bo‘lib, semiotik bagaj yordamida ifoda etiladi (yashirin ma’no shaklga ega bo‘lmasdan amalga oshiriladi). Boshqa tomondan, turli kontekstlarda sukunatni interferensiya qilish kerak (chunki nutq kontekstidan tashqarida sukunat kommunikativ va informativ emas), aks holda insonning tushunishi yetarli darajada to‘liq bo‘lmaydi. Shuning uchun ham sukut ko‘p ma’noli bo‘lib, nutq ko‘p ma’noni konkretlashtirishga yordam beradi.

So‘z olamning manzarasini lisoniy ifoda etuvchi leksik unsur bo‘lib, predmetni, belgini, harakat yoki holatni ifoda etish vazifasini bajaradi.

Bir tomondan, sukunat ba’zan so‘zdan ko‘ra muhimroq eshitiladi – shuning uchun u dunyoning asosiy noaniqligi va daqiqama-daqiqa o‘zgaruvchanligini, uning hajmini yaxshiroq ifodalaydi (bu diskretlik emas – so‘zning imtiyozi). Boshqa tomondan, har kim sukunatni o‘z didiga qarab talqin qilishi mumkin va keyin, ehtimol, ma’lum vaziyatlarda, bir paytlar A.Beliy aytgan ibora haqiqatdir: “Janoblar, tabiiylikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri halollik ko‘proq!” (bu holda sukunat va so‘z/to‘g‘rilik “halollik – yolg‘on” ma’nosida qarama-qarshi qo‘yilgan).

Agar biz L.Blumfildga ergashsak, tafakkurni “o‘z-o‘zi bilan gaplashish” deb hisoblasak, bu mantiqdan kelib chiqqan holda sukunatni “fikrlash”ning alohida turi – ichki nutq orqali aniqlash mumkin. Til yashirin mohiyatga ega, shu bilan birga, so‘z orqali ifodalash imkoniyati ham bor – odamda nutq ongi bor, chunki ongimizning ma’lum bir qismi (hammasi emas!) og‘zaki ifodaga bo‘ysunadi va uni nutqsiz “tekshirish” mumkin emas.

Nutqiy aloqa-aralashuv jarayonida propozitsional va pragmatik komponentlarning barchasi verballashmaydi, balki verbal ifodalar bilan kommunikativ va semantik jihatdan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. “Insonda, – deb yozadi I.N.Gorelov, – hayotining boshlanishidanoq kommunikativ aktning verbal va noverbal vositalariga diqqat jalb etish malaka hamda ko‘nikmalari tarbiyalanib boradi” [2. B. 90]. Shu jihatdan olib qaralganda, aloqa-aralashuv jarayonining shakllanishida va ro‘yobga chiqishida, adresant va adresatning fikr almashinuvida “sukut” (jim turish, gapirmaslik) ham noverbal vosita sifatida ishtirok etadi.

Ma’lumki, dialogning mohiyati suhbatdoshlarning o‘zaro axborot almashuvlaridan iborat ekan, kommunikantlarning so‘zlashuv doirasidagi sukuti uzatilayotgan axborotni hazm qilish va mushohada asosida unga mos axborot uzatishdan iborat bo‘ladi. Aytish mumkinki, sukut ma’nosi ko‘p hollarda verballashgan tarzda ifoda etiladi. Bunday hollarda sukut verbal vosita orqali kuzatib boriladi yoki tasdiqlanadi yoxud ta’kidlanadi.

S.V.Krestinskiy sukutni ichki nutqning bir shakli deb aytadi va inson qandaydir sababga ko‘ra tovushli nutqni inkor qilganda, o‘ylashdan to‘xtamaydi. Bu to‘xtashning inkori rejalashtirilgan yoki rejalashtirilmagan, ma’lum psixologik yoki ijtimoiy omillar asosida, muayyan muhit va vaziyatning talablari yoki normalari asosida bo‘lishi mumkin [3. B. 77].

Sukut ko‘p ma’noli va ko‘p vazifali vositadir. U verbal va noverbal kod orqali ifoda etiladigan har qanday ma’no yoki mazmunni bildirib kelishi mumkin bo‘ladi.

Shuning uchun pragmalingvistikada sukutning tadqiqida eng asosiy muammolardan biri bu uning kommunikativ ahamiyatga egaligi yoki kommunikativ ahamiyatga ega emasligidir. Kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lmagan sukutning o‘ziga xosligi shundaki, u funksional yuk tashi-

maydi va muloqot holatidan tashqarida bo‘ladi. Bu kabi sukut kommunikativ vazifa bajarmaydi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi personajlarning o‘zaro muloqoti jarayonini kuzatganimizda, ular sukutda bo‘lgan holatlarida o‘zaro gaplashadilar, ulardagi tabiiy-hissiy holatlar, mimik va ishoraviy o‘zgarishlar, ovozlaridagi ma’no ifodalovchi talaffuz remarkalar orqali beriladi va kitobxon uni o‘qib, ko‘rganday hamda eshitganday bo‘ladi, natijada matn voqealari kitobxonga jonliday tuyuladi.

“Miryoqub kirgan hamon salom qildi va xuddi eski bir oshnasi bilan ko‘rishayotganday ***kulib turib*** *ko‘rishdi. Xotinning* ***qo‘l berishida*** *shu xil xotinlarda bo‘ladigan bir* ***loqaydlik*** *boridi.Sovuq qo‘l* ***sovuqlik bilan uzaladi****: “****Ha, eski tanimning yangi xaridori”,*** *– deganday. Miryoqubning odatda hamma* ***qo‘lni mahkam siqib ko‘rishadigan qo‘llari bu kichkinagina oppoq va yumshoq qo‘llarni ham kuch boricha siqdilar.****Faqat bu qisishlar* ***olovsiz va haroratsiz*** *edilar:* ***“Ha, chuqur cho‘ntagimning ochko‘z mehmoni” deganday”.***

Ushbu matn orqali zimdan aloqa-aralashuv yuzaga chiqmoqda. Boshqacha aytganda, nutqiy bo‘lmagan muloqot shakllanmoqda. Personajlar o‘rtasida qo‘l berib ko‘rishish xatti-harakati ortida hissiy, ruhiy, imo-ishoraviy “dialogik nutq” amalga oshirilmoqda. Ko‘rinib turibdiki, Cho‘lpon inson ruhiyatini o‘ta nozik tushungan va buni badiiy matnda ta’sirli holatda bera olgan.

Yuqoridagi kontekstda Miryoqubning *“eski bir oshnasi bilan ko‘rishayotganday* ***kulib turib*** *ko‘rishish”ida* hukmronlik (pulini to‘lab qo‘ygani), ehtirosli onlardan oldingi xush kayfiyat ustuvor bo‘lsa, *“Xotinning* ***qo‘l berishida****”* mutelik, majburiylik namoyon bo‘ladi.

Cho‘lpon ko‘rishish jarayonini tasvirlar ekan, hali nutqiy kommunikatsiyaga kirishmagan kommunikantlarning ichki fikrlashlarini uqib, kitobxonga havola qiladi: *“Ha, eski tanimning yangi xaridori”, “Ha, chuqur cho‘ntagimning ochko‘z mehmoni”.*

Ko‘rishuv kartinasi bu bilan yakun topmaydi, muallif qo‘l olishuvdan ma’ni topish amrimahol ekanini, shuning uchun bu qo‘l qisishlar ham olovsiz va haroratsiz ekanligini ta’kidlash bilan ushbu sevgi uchrashuvining sun’iyligini, o‘tkinchiligini, hissiz, ma’nosiz ekanligini bildiradi:

“*Butun bu* ***ko‘rishuvlar va qo‘l siqishuvlar va ko‘z tutuvlarda****, shuningdek, bu ko‘rishuvni o‘rab turgan sharoitda ma’ni degan narsa topilmasdi. Bu ikkala savdogardan bir ma’ni izlash, ayniqsa, shu topda behuda urinish bo‘ladi. Faqat ikkalasining ikki juft ko‘zi bundan mustasno”.*

Kishilararo muloqot jarayonida sukutning muayyan ma’no ifoda etishi qadimdan ma’lum bo‘lib, u munosabatlar natijasida shakllangan. Dialog ikki kishining o‘zaro suhbati ekan, yana shuni qo‘shimcha qilish kerakki, bu nutqiy jarayon ikki kishining tinglashidan ham iborat. Ya’ni adresantning axborot uzatuvi adresat tomonidan sukut asosida qabul qilinadi va, aksincha. Demak, muloqot so‘zlash va tinglash (sukutdan iborat bo‘ladi. Tinglash, ya’ni sukutda bo‘lish ham kommunikativ aktning tarkibiga kiruvchi unsurlardan sanalib, ushbu tinglash sukutida adresat uzatilayotgan axborotni (informatsiyani) qabul qilib oladi, mushohada qiladi, so‘ng mos ravishda javob qaytaradi.

Aloqa-aralashuv jarayonida sukutning ishlatilishini tekshirish shuni ko‘rsatadiki, sukut psixoparalingvistik hodisa bo‘lib, aloqa-aralashuvda verbal vosita orqali ifoda etib bo‘lmaydigan holatda, salomatlikka ko‘ra ruhiy hayajon holatida kommunikantlarning o‘zaro munosabatlariga ko‘ra ishlatiladi.

Ayrim hollarda kishi o‘ta hayajonlangan paytlarida, inson kerakli so‘zni topa olmay qolganda ham unga paralingvistik vositalar yordamga keladi va aloqa-aralashuvning yuzaga chiqishini ta’minlaydi. Ayniqsa, qo‘rquv, hayronlik, achchiqlanish, nafrat, sevinch, g‘urur va boshqa holatlarda insonlarga tabiiy ravishda yordamga keladi.

“Paxtaga o‘t ketgani Otaning yuragini ezib turgan bo‘lsa, “o‘t qo‘ygan bolalarning ichida o‘g‘lim yo‘q bo‘lsin-da, agar u bo‘lsa, men qanday yashayman” degan ichki hissiyot uni biror og‘iz gapirishga qo‘ymas edi”.

Ko‘rinib turibdiki, asardagi sukunat personaj qalbining baqirig‘i, nidosini bildiradi. Badiiy asar matni bilan tanishish shuni anglatdiki, sukut ortida hissiy fikrlar, ruhiy po‘rtanalar, afsus va nadomatlar, xotiralar, shuningdek, quvonch, kelajak orzular, sevinch va boshqa juda ko‘p tuyg‘ular ifoda etiladi.

*“*Sukut – kommunikativ aktning nol formasi” deyilsa-da, badiiy dialogik nutqda personaj

xarakterini ochib beruvchi, aloqa-aralashuv munosabatini ifodalovchi kommunikativ-psixologik-emotsional unsur sanaladi. Nabi Jaloliddinning ”Xayyom” asarida sukut turli badiiy epizodlarda berilgan bo‘lib, mushohada qilish sukuti, so‘z topolmaslik sukuti, ojizlik sukuti, mag‘lublik sukuti kabi ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan.

“ – Bunga ne javob qilursen?
Layli so‘zsiz turaverdi.
– So‘zla!.. – deya o‘shqirdi malika.
Layli bir qalqib tushdi, lekin indamadi”.

Laylining ushbu sukuti o‘z aybiga iqror bo‘lish sukuti emas, balki zo‘ravonlikka asoslangan tuzumda sukutga aylangan haqiqatning jimligi edi. Hukmdorlar qoshida o‘zining to‘g‘ri va pok ekanligini isbot qila olmaydigan mahkumaning ojizona sukuti edi.

M.S.Abdalla sukutning badiiy matndagi ma’nolari xususida to‘xtalib, 17 ma’no ifodalashini aytib o‘tadi *(tasdiq, inkor (rozi emaslik), suhbatdoshni tushunishni va bilishini, tushunmaslik va bilmaslikni, adresatning uyalishini, xijolat bo‘lishini, adresatning hayajonlanganini yoki qo‘rqishini, xafa bo‘lish natijasini, adresatning kuchsizligi va qaramligini, befoyda, benatija holatini, suhbatdoshga hurmatsizlikni, donolikni, ahmoqona savollar berilgandagi holatni, xulosa qilishni, suhbatdoshni ayblagandagi so‘zlovchi sukutini, kayfiyati yomon bo‘lganda, qattiq charchaganda, o‘ta xursand bo‘lganida va, aksincha, holatdagi sukutni)* [4. B. 32].

Og‘zaki va yozma nutqning o‘zaro farqi muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi. Yozma nutqning ta’sirchanlik darajasini oshirish, uning jonli va tabiiyligini ta’minlash uchun so‘zlashuv jarayonida ishlatilgan kinetik belgilarni asar mohiyatini ochib berish darajasiga va muhimligiga ko‘ra verballashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar real muloqot jarayonida nutqning modalligi va emotsionalligi ko‘z qarashlari, ishora, imo, ohang kabi noverbal vositalar bilan ifodalansa, yozma nutq ancha murakkab lisoniy talablarga javob berishni taqozo etadi. Ijodkor kommunikantlar muloqotidagi barcha nonutqiy holatlarni tabiiy ravishda idrok qilishi va “ko‘rishi” kerak hamda ularni personajlarning munosabatlari darajasida verbal ifoda etishi kerak bo‘ladi. Bu o‘rinda personajlar muloqotida ishlatilgan noverbal vositalarning tipiklashmaganlarini til imkoniyatlari darajasida samaradorlikni yo‘qotmagan holda verballashtirish kerak bo‘ladi.

Kitobxon badiiy matnni o‘qish jarayonida yozuvchi tomonidan matnda berilgan kinetik jarayonlarni ko‘z oldiga keltirish uchun kommunikativ akt ”plyonkasini” orqaga qaytaradi va verballashgan ishoradan noverbal kodni aniqlaydi, natijada matnni to‘laligicha idrok etadi.

Har qanday badiiy asarda mavjud personajlarning tavsifi muallifning tasvirlashi, izohlashi, u haqdagi ma’lumotlarni kitobxonga yetkazishi bilan birga, o‘sha personajning boshqa shaxslar bilan munosabat-muomalasida, xatti-harakatlarida, ma’lum vaziyatda o‘zini tutishiga: ruhiy, hissiy holatlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu esa yozuvchi asardagi har bir qahramonga individual yondashishi kerakligini anglatadi.

Asardagi har bir qahramon alohida shaxs bo‘lib, u badiiy asarda ham muayyan maqomga ega bo‘lishi, xulqi, odobi, temperamenti, insonlarga munosabati, muloqot olib borishi, ma’lum masalaga munosabat bildirishi, qo‘yingki, barcha jihatdan o‘zligini namoyish qilishi kerak bo‘ladi. Shu o‘rinda personaj haqidagi ma’lumotlar, bir tomondan, asardagi qahramonimizning harakatlanishi asosida aniqlansa, ikkinchi tomondan, muallifning remarka-izohlari orqali namoyon bo‘ladi. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarida Anvar obrazining romandagi harakatlanishi tahlil qilinganda, uning xarakteri bolaligidan bosiq, mulohazali, aqlli, adolatli, odob-axloqli, samimiy, boshqalarni hurmat qiluvchi, siniq, kamtar ekaniga guvoh bo‘lamiz. Yozuvchi asar davomida yuqoridagi xislat-fazilatlarni uzviylik asosida tasvirlab boradi.

“Anvar ularning so‘ziga qarshi **majhul bir vaziyat saqlag‘an holda bosh qimirlatib sufaga qaytdi**”.

*“Mohlar oyimning haligi so‘zi bilan masalaga tushundi va **yatimona boshini quyi soldi”.***

“*Anvar **uyalib bag‘ridag‘ini bo‘shatib yubordi.** Xotinlar **kulishdilar”.***

*“Axir bir kun uylanadi, bamisoli sen bo‘lsang erga tegasan… Axir uy kerak-da, qizim. Bu so‘zdan Anvar **qizarib** ketdi”.*

*“Ra’no Anvarning maqsadig‘a tushundi, shekilli, bir necha vaqt jim qoldi va qarshisidag‘i yigitning **o‘ychan yuziga** bir-ikki qarab oldi”.*

“– Domlaning so‘z daromadiga qarag‘anda, sizni o‘ziga kuyav qilish fikri borg‘a o‘xshaydi. Sizning rizolig‘ingiz bilanmi, yo‘qmi, bunisini bilalmadim…”

*“Anvar **qizarindi**. Javob berish o‘rnig‘a “natija?” degandek qilib **unga savol nazari bilan qaradi”.***

Romanda Anvardagi yuqoridagi keltirilgan xususiyatlar muallif nutqida keltirib boriladi va bu holat Anvar obrazining xislat-fazilatining shakllanishida asosiy omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

“Mehrobdan chayon” romanidagi muallif nutqi orqali personajlar xarakterini ochib berishda noverbal komponent qariyb 55% miqdorida ishlatilganini kuzatish mumkin. Bu esa ijodkor asardagi personajlarning nutqinigina emas, balki har bir xatti-harakatini ham: imo, ishora, axloq-odobi, xulq-atvori, gavda harakatlarini, so‘zlashuv sifati, nutqni irod qilishi, hissiyoti, ruhiyati, o‘ziga xos odatlari va shaxsning shakllanishidagi boshqa jihatlarni ham e’tiborga olishidan dalolat beradi.

Paralingvistik vositalarning vazifalari og‘zaki va yozma shaklda o‘zaro yaqin bo‘lib, paralingvizmlar og‘zaki qo‘llanganda spontan holda bo‘lsa, matn ko‘rinishida bu adabiy-uslubiy ijod namunasi sanalib, kommunikatsiya jarayonida axborot uzatadi.

Kinetik sistema kommunikatsiyaning ajralmas qismi bo‘lgani va badiiy adabiyotda o‘z ifodasini topgani sababli kinetik vositalarning badiiy matnda ishlatilishining har xil, turli tomonlama va o‘ta muhim jihatlarini o‘rganish dolzarb masalalardandir.

Personaj haqidagi axborot adresatning unga munosabatini o‘zgartiradi, kitobxonning personaj haqidagi qarashlariga aniqlik kiritadi. Personaj ham o‘zi haqidagi fikrlar asosida borliqqa va boshqalarga munosabat bildiradi.

“Mehrobdan chayon” asarida Anvarning ko‘p o‘rinda muloqot jarayonida sukut saqlashi, jimlik bilan javob berishi, nigohlari orqali fikr ifodalashi va boshqa ayrim harakatlari muallifning personaj xarakterini yaratishdagi oqilona usuli sanaladi. Asarda Anvarning *sukut saqlashi, vaziyatlarda bosiqlik bilan jim turishi, qo‘l qovushtirishi, qo‘llarini ko‘kragiga qo‘yishi, tavoze bajo qilishi, bosh egishi, iljayib tasdiq ishorasini qilishi, kulimsib qo‘yishi, er ostidan qarashi, ko‘z qirini tashlashi, ko‘zlarini olib qochishi, qizarinishi, bosh chayqashi, sekin boshini ko‘tarishi* kabi kinetik holatlar, birinchidan, vaziyatda kontekstual ma’no ifodalasa, ikkinchidan, personajning xarakteri qirralarini ochib berishda ishtirok etadi.

Badiiy matnda noverbal vosita sifatida e’tirof etilgan sukutning ishlatilishi haqida yozgan D.V.Shulyateva uni ”badiiy tasvir vositasi” deb ta’riflaydi va asarda personajlar haqidagi real chizgilarni ifodalash vositasi ekanini qayd etadi [5. B. 62]. Matn interpretatsiyasida bu vosita qadimdan ahamiyatli sanalgan [6].

Personajning borliqqa va boshqa personajlarga ta’siri noverbal yo‘l bilan ham bo‘lishi mumkin. Agar personaj xarakterining nutq orqali ifodalanish usullari ishlangan bo‘lsa, personajning o‘zi haqidagi xarakteristikani o‘z harakati orqali berishi tilshunoslarning diqqat-e’tiboridan chetda qolib ketmoqda. Shuning uchun badiiy asardagi personaj portretini chizishda kinetik usuldan foydalanish kerakligi e’tiborga loyiq. Personaj portreti deyilganda, ushbu o‘rinda uning tashqi fizik tomoni va ichki psixologik tomoni e’tiborga olinadi.

Personaj portreti muallif tomonidan yaratilib, voqealar rivoji asnosida ular mukammallashib, to‘laqonli bo‘la boradi va shundan kelib chiqib, biz obrazga tavsif beramiz..

*“Ra’no ayvondagilar bilan xayrlashar ekan, hujrada qolg‘an Anvarning **ikki ko‘zi jiq yoshqa to‘lib, ko‘kragi kuchlik-kuchlik silkindi va gavdasi o‘ziga og‘irliq qilg‘andek devorg‘a borib suyandi...”.***

“*Ra’no **uzoq entikdi va asabiy harakat bilan o‘rnidan turib** beshik yonig‘a keldi”.*

Keltirilgan badiiy matn parchasidagi Anvar va Ra’no obrazlarida kontrast holatni kuzatish mumkin: Anvardagi *soddalik, xarakter jihatidan passivlik, yuqori etik normalarga bo‘ysunish, odoblilik* kabi sifatlar Ra’nodagi *tashabbuskorlik, dadillik, jasoratlilik* kabi xislatlarga qarama-qarshi qo‘yilgan va o‘ziga xos ravishda bu ikki obraz haqida kitobxonda tasavvur hosil qilgan.

Kinetika badiiy asarda personajlarning portretini yaratishda asosiy vositalardan sanaladi. Badiiy matndagi kinetik vositalarning funksional tahlili shuni ko‘rsatadiki, mualliflar noverbal komponentlardan ko‘p hollarda personajlarning emotsional-psixologik holatlarini ochib

berishda foydalanadilar. Bu esa kitobxon ko‘z oldida personajning ruhiy portretini namoyon etadi. Yu.V.Ivanova ta’kidicha, asar qahramonining emotsional-psixologik portretini ifodalash uchun yozuvchi asardagi umumiy kinetik vositalarning 54 foizidan foydalanadi [7. B. 6]. Muallif keltirgan boshqa asarlardagi psixokinetik vositalar ham 50 foizdan ortiq ekani ko‘rsatib o‘tilgan. Shu o‘rinda mashhur tilshunos Sh.Ballining ushbu fikri joiz bo‘ladi: “Hissiyot ishorada moddiy tayanch nuqtaga ega bo‘ladi” (“В жесте эмоция получает материальную точку опоры”) [8. B. 79]. Shuning uchun badiiy asarda har bir ifodalangan paralingvistik holat asoslangan va bevosita badiiy personajlarning ruhiyati bilan aloqador bo‘ladi.

Yu.V.Ivanova tekshirishlari yakunida badiiy matnda paralingvistik vositalar quyidagi 9 ta yetakchi vazifada kelganini ta’kidlaydi.

Morfo-sintaktik sathda: 1) badiiy asar qahramonining real hayot yo‘lini ko‘rsatib berish; 2) asar personajlarining aloqa-aralashuvdagi dinamikasini ko‘rsatib berish; 3) muallifning ishorani o‘z o‘rnida qo‘llashi; 4) kinetik aktga kitobxonni jalb qilish; 5) muayyan kommunikativ aktda ishoraning ahamiyatini ta’kidlash; 6) ishoraning emotsional va ekspressivligiga o‘quvchilarni tayyorlash. Butun matn sathida: 7) personajlarning xarakteristikasi; 8) holatning xarakteristikasi; 9) muallif uslubining individual stilistik o‘ziga xosligining ifodalanishi.

Iste’dodli yozuvchi M.Mansurovning “Mangu jang” romanidagi ushbu matnda personaj xususiyati uning xatti-harakatlari orqali ochib berilgan va bu harakatlar obrazning qirralarini ochiqlashga yordam bergan:

“Burxon to‘kis to‘lg‘anadi, zarda bilan gapiradi, betoqatlanadi, g‘azabi qo‘ziydi, jahl bilan ko‘kragiga mushtlaydi. Akbar polvon esa do‘stining bunday harakatlariga qarama-qarshi o‘laroq “bamaylixotir gapiradi, iljayadi, kuladi, jiddiylashib, bosiqlik bilan uning ayblarini yuziga aytadi”.

Badiiy asar matnidan kelib chiqqan holda personajlar xatti-harakati orqali, birinchidan, obrazlar xususiyatlari ochib berilayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, ularning o‘zaro munosabatlari haqida axborot berilmoqda. Shunisi e’tiborliki, asardagi personajlarning hissiyotidagi kontrast holat obrazlarning harakatlarida o‘z ifodasini topmoqda.

Burxon	Akbar
zarda bilan gapirdi	bamaylixotir gapirdi
to‘lg‘andi, betoqatlandi	iljayadi
g‘azabi qo‘zg‘aldi	kuladi
jahl bilan jiddiylashib	bosiqlik bilan
ko‘kragini mushtlaydi	(ayblarini) yuziga aytadi

Burxonni xarakterlovchi harakatlar:

Zarda bilan (gapirdi) – qattiq ovozda, alohida tonda siltab-siltab.

To‘lg‘anadi, betoqatlanadi – tez-tez yuradi, o‘zini bir yerga qo‘ya olmaydi.

G‘azabi qo‘zg‘aydi – har xil so‘zlar bilan so‘kinadi, baqirib yuboradi, qo‘lini musht qilib, ikkala qo‘lining ochiq kaftiga uradi.

Jahl bilan ko‘kragiga mushtlaydi – yuzida jahl ifodalovchi mimik ko‘rinish bo‘ladi, o‘ng qo‘lini musht holda tugib, ko‘kragiga bir yoki bir necha marta ura boshlaydi.

Matndagi verbal ifodaning kinetik ko‘rinishi inson hissiyotining harakatlarda namoyon bo‘lishidir.

Ayrim asarlarda ishora va imo tili nihoyatda boy bo‘lib, muallif personajlarning xarakterini ochib berishda ulardan keng ravishda foydalanganining guvohi bo‘lamiz. Personaj xarakterining qirralarini namoyish etishda ishlatiluvchi paralingvistik vositalar fikrlarni ham ifodalab keladi.

Xulosa

Personajning barcha hissiy va ruhiy holatlarini o‘zida aks ettiruvchi kinetik holatni yozma nutqda to‘liq ifodalash uchun so‘zlarning barcha qo‘shimcha ma’no ottenkalaridan va emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikdan obraz yaratish maqsadida unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, yozma nutqda leksik, grammatik va uslubiy jihatdan mos unsurlardan foydalangan holda kinetik vositalarning verbal ifodasini kitobxonga tushunarli qilib berish kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. *Витгенштейн Л*. Философские исследования. – Москва: АСТ. Астрель, 2010. – 347 б.
2. *Горелов И.Н*. Невербальные компоненты коммуникации. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 112 с.
3. *Крестинский С.В*. Молчание в системе невербальных средств коммуникации // Тверской лингвистический меридиан: Теоретический сборник. – Вып. 1 / Под ред. И.П.Сусова. – Тверь: Тверской государственный университет, 1998. – С. 74–79.
4. *Абдалла М.С.* Молчание как коммуникативный АКТ // Вестник КазНУ. Серия востоковедения. 2012. – № 4. – С. 31–37.
5. *Шулятьева Д.В*. Молчания – как литературная техника // Филологические науки, 2019. – № 2. – С. 62–68.
6. *Эпштейн М.Н.* Слово и молчание. Метафизика русской литературы. – Москва: Высшая школа, 2006. – 559 с.
7. *Иванова Ю.В.* Паралингвистические элементы художественного текста: Автореферат дисс... канд. филол. наук. – Смоленск, 2009. – 19 с.
8. *Балли Ш.* Французская стилистика. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1961. – 394 с.
9. *Сафаров Ш*. Паралингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 300 б.
10. *Чўлпон, Абдулҳамид*. Кеча ва кундуз. Роман – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013 – 332 б.

THE SILENCE OF THE CHARACTERS AS AN ARTISTIC ELEMENT

Ma'murjan M. Saidhonov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 7(75). 65-72.

[1] Andijan State University, Andijan, 170100, str., University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_ info@edu.uz

Keywords: verbal and nonverbal, communication, communicative act, silence, character, communication, dialogue of silence, nonverbal code

The article presents analytical materials on silence and its place in ensuring the individuality of characters in a work of art, in expressing the character of an artistic image, in expressing its inner feelings and psyche. Using artistic textual analysis, the use of silence in the communication of communicants in a work of art is proved on the basis of examples that are key elements in expressing the world of the writer's characters.

Artistic textual analysis shows that in a specific situation, silence is revealed with the help of linguistic units, respectively, in which the meaning of silence is determined from the context and situationally, silence is considered as a means of revealing the character of the character of the work.

In the process of communication between the characters of a literary text, the silence of each image is important for expressing the natural situation, as well as the character, characteristics, portrait, mental and emotional states of the participants in the work, which are all studied within the framework of a communicative act. Accordingly, in this article, the communicative act of the characters of the work is drawn into a lively dialogue and textual analysis. This is evidenced by the fact that extralinguistics is consistent with linguistics. The article considers the analysis of verbalized silence in the process of real communication as a separate method of identifying the character of characters in a literary text.

In the process of interpersonal communication, it has long been known to express a certain meaning of silence, which was formed as a result of the relationship. Since dialogue is a conversation between two people, it should be added that this speech process also consists of listening by two people. That is, the transfer of information by the addressee is accepted by the addressee on a tacit basis, and vice versa. Therefore, communication will consist of speaking and listening (silence). Listening, that is, being in silence, is also counted from the elements

that are part of the communicative act, in this silence of listening the addressee receives the transmitted information (informativeness), observes, then reacts accordingly.

The study of the use of silence in the process of communication intervention shows that silence is a psychoparalinguistic phenomenon used in communication intervention in an inexpressible state with the help of a verbal environment, in accordance with the relations of communicants in a state of mental arousal, depending on the state of health.

In any work of fiction, the description of existing characters will depend on the description, interpretation of the author, information about him, as well as on the fact that he will convey information about him to the reader, as well as on the behavior of this character in relation to other personalities, in behavior in a certain situation: his mental, emotional states. This means that the writer must approach each character of the work individually.

The functions of paralinguistic means are close to each other in oral and written form, and if paralinguisms are spontaneous when used orally, then in the form of a text they are considered an example of literary and methodological creativity and convey information in the process of communication.

In order to fully express the kinetic state, reflecting all the emotional and mental states of the character, in writing, it will be advisable to maximize the use of all additional semantic shades of words and emotionally expressive coloring in order to create an image. In other words, in written speech, the verbal expression of kinetic media using lexically, grammatically and stylistically acceptable elements should be presented to the reader in an understandable way.

References:

1. Wittgenstein, L. (2010) *Filosofskie issledovaniya* [Philosophical research]. Moscow: AST. Astrel.

2. Gorelov, I.N. (1980) *Neverbal'nye komponenty kommunikacii* [Non-verbal components of communication]. Moscow: Nauka

3. Krestinsky, S.V. (1998) Molchanie v sisteme neverbal'nyh sredstv kommunikacii [Silence in the system of non-verbal means of communication]. In: Tverskoj lingvisticheskij meridian: Teoreticheskij sbornik [Tver Linguistic Meridian: Theoretical Collection]. Issue. 1. Tver: Tverskoj gosudarstvennyj universitet. Pp. 74-79

4. Abdalla, M.S. (2012) Molchanie kak kommunikativnyj AKT [Silence as a communicative ACT]. *Vestnik KazNU. Seriya vostokovedeniya*. No 4. Pp. 31-37.

5. Shulyateva, D.V. (2019) Molchaniya – kak literaturnaya tekhnika [Silences as a literary technique]. *Filologicheskie nauki*. No 2. Pp. 62-68.

6. Epshtejn, M.N. (2006) *Slovo i molchanie. Metafizika russkoj literatury* [Word and silence. Metaphysics of Russian literature]. Moscow: Vysshaya shkola.

7. Ivanova, Yu.V. (2009) Paralingvisticheskie elementy hudozhestvennogo teksta [Paralinguistic elements of literary text]: Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Smolensk.

8. Balli, Sh. (1961) *Francuzskaya stilistika* [French style]. Moscow: Izdatelstvo inostrannoj literatury.

9. Safarov, Sh. (2008) *Paralingvistika* [Paralinguistics]. Tashkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

10. Cho'lpon, A. (2013) *Kecha va kunduz* [Day and Night]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

Muallif haqida ma'lumot:

SAIDXONOV Ma'murjon Muhammedovich – filologiya fanlari doktori (DSc), Andijon davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi professori. E-mail: saidxonov54@mail.ru